

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 284 sahifa.
2026-yil, fevral*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJIRIBASI	66
Alimardonov G’ayratjon Nuraliyevich	
XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o’g’li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ	101
Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
RAQAMLI MOLIVA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI	117
Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li	
GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI	123
Abdirazakov Akmal Ibragimovich Namozov Og'abek Maxmud o'g'li	
AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS	128
Utkirova Maftuna Murodjon qizi	
O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI	134
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	139
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	150
Akramov Akbarjon Akmal ugli	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI	156
Aminov Abbas Mo'minboy o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR	160
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
MINTAQADA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYASI	165
Yakubov Temur G'anibekovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI	169
Siroj Zarina Rustambekovna	
AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINING YAIM VA BANDLIKKA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	176
Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Ziyodullayev Qahramon	
ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ: ПОЛЬЗА ДЛЯ ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИИ	185
Хамдамова Гавхар Абсаматовна	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISHNING MOLIVAVIY VOSITALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	191
Mamatov Baxodir Quldoshovich	



KO'P QIRRALI VALLARNING SHAKLLANTIRISH METODLARI VA USULLARINI TAHLIL QILISH	197
<i>Xasanov Bobirmirzo Maxmudali o'g'li, Valixonov Dostonbek Azim o'g'li, Alibekov Rasulbek Qanotbek o'g'li</i>	
MINTAQA SANOATINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	205
<i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	209
<i>Nomozova Qumri Isoyevna</i>	
XALQARO STANDARTLAR TALABLARI ASOSIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	216
<i>Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li</i>	
QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHNI TARTIBGA SOLISH TIZIMI	221
<i>Achilova Firuza Kurbanovna</i>	
BANK MENEJMENTIDA INKLYUZIV MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, TAMOYILLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI	225
<i>Rajabov Oybek Panjievich</i>	
MINTAQADA OLIY TA'LIM TIZIMINING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	229
<i>Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li</i>	
MAISHIY XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION KLASSTER MODELINI JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	235
<i>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INVESTITSiya FAOLIYATINI BOSHQARISH	240
<i>Xatamov Nurbek Ochirdiyevich, Sharifi Abdul Fatah</i>	
MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNING AMALDAGI MUAMMOLARI VA ULARNI YECHIMI YUZASIDAN TAKLIFLAR	245
<i>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</i>	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIK RISKLARINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	251
<i>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	257
<i>Karimov Shohruh Boydulla o'g'li</i>	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATINING HISOBOTLARINI XALQARO STANDARTLARGA TRANSFORMATSIYA QILISH	262
<i>Astanov Zafar Murodillayevich</i>	
QARAMA-QARSHI AYLANUVCHI IKKI ROTORLI SHAMOL TURBINASINING MATEMATIK MODEL	266
<i>Pirmatov Nurali Berdiyevich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Saodullayev Abror Saypullayevich, Qurbonov Najmiddin Abduxamidovich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTIONAL VA INVESTITSION MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	272
<i>Norboyev Sarvar Azodovich</i>	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT SOHASIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY AHAMIYATI	277
<i>Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li</i>	



O'ZBEKISTONDA TRANSPORT SOHASIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY AHAMIYATI

Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik kafedrası katta o'qituvchisi
ORCID: 0009-0009-8620-4701

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda transport sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining, xususan yuk tashish xizmatlaridagi kichik biznesning iqtisodiy ahamiyati tahlil qilingan. 2020–2025 yillar davomida yuk tashish hajmi dinamikasi, avtomobil transportining ustuvorligi va kichik biznes subyektlari ulushining o'sish tendensiyasi statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Shuningdek, xizmatlar sohasida norasmiy iqtisodiyot ulushi, raqamlashtirish jarayonlari va soliq bazasini kengaytirish masalalari ko'rib chiqilgan. Maqolada transport-logistika sohasini rivojlantirishga qaratilgan asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, kichik yuk tashuvchilarning iqtisodiy samaradorligi va institusional rolini oshirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: transport sohasi, yuk tashish xizmatlari, kichik biznes subyektlari, avtomobil transporti, raqamlashtirish, logistika, norasmiy iqtisodiyot, soliq bazasi, iqtisodiy samaradorlik.

Abstract. This article analyzes the economic significance of entrepreneurial entities operating in the transport sector of Uzbekistan, particularly small businesses engaged in freight transportation services. Based on statistical data, the study examines the dynamics of freight transportation volumes from 2020 to 2025, the dominant role of road transport, and the growing share of small business entities. In addition, issues related to the informal economy in the service sector, digitalization processes, and the expansion of the tax base are discussed. The article reviews key regulatory and legal documents aimed at developing the transport and logistics sector and proposes practical recommendations to enhance the economic efficiency and institutional role of small freight carriers.

Keywords: transport sector, freight transportation services, small business entities, road transport, digitalization, logistics, informal economy, tax base, economic efficiency.

Аннотация. В данной статье проанализирована экономическая значимость субъектов предпринимательства, функционирующих в транспортной сфере Узбекистана, в частности малого бизнеса в сфере грузовых перевозок. На основе статистических данных освещена динамика объемов грузоперевозок за 2020–2025 годы, приоритет автомобильного транспорта и тенденции роста доли субъектов малого бизнеса. Также рассмотрены вопросы доли теневой экономики в сфере услуг, процессов цифровизации и расширения налоговой базы. В статье проанализированы основные нормативно-правовые акты, направленные на развитие транспортно-логистической отрасли, и разработаны практические предложения по повышению экономической эффективности и институциональной роли малых грузоперевозчиков.

Ключевые слова: транспортная отрасль, грузовые перевозки, субъекты малого бизнеса, автомобильный транспорт, цифровизация, логистика, теневая экономика, налоговая база, экономическая эффективность.

KIRISH

Global iqtisodiyot sharoitida transport sohasi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tovarlar va xizmatlar harakatining jadallashuvi, tashqi savdo aloqalarining kengayishi hamda hududlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitda transport-logistika tizimining samaradorligi mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, transport sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining, xususan

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy ahamiyatini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan institusional islohotlar, iqtisodiyotni liberallashtirish hamda xususiy sektorni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar transport sohasida ham tadbirkorlik faolligining oshishiga xizmat qilmoqda. Jumladan, yuk tashish xizmatlari segmentida kichik biznes subyektlarining ulushi izchil ortib bormoqda. Avtomobil transporti orqali amalga oshirilayotgan yuk tashish xizmatlarida yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda mikro-logistika kompaniyalari asosiy ishtirokchilar sifatida shakllanib, ichki bozor barqarorligini ta'minlash va aholi bandligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda.

Shu bilan birga, xizmatlar sohasiga xos bo'lgan ayrim tashkiliy va institusional xususiyatlar, jumladan, norasmiy iqtisodiy munosabatlarning mavjudligi, naqd pul hisob-kitoblarning salmoqli ulushi, shartnomaviy munosabatlarning to'liq rasmiylashtirilmasligi hamda elektron hujjat aylanishining yetarli darajada rivojlanmaganligi transport xizmatlari bozorida ma'lum institusional cheklavlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu holatlar soliq bazasini kengaytirish, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish hamda kichik biznes subyektlarini iqtisodiy muomalaga yanada faol jalb etish zaruratini kuchaytirmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekistonda transport sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy ahamiyatini tahlil qilish, yuk tashish xizmatlari bozorida kichik biznes ulushining dinamikasini baholash hamda sohani rivojlantirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida respublikadagi yuk tashish xizmatlari bozori, tadqiqot predmeti sifatida esa ushbu bozorda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining iqtisodiy roli va institusional muhiti tanlab olindi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, taqqoslash, tizimli yondashuv hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni kontent-tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar transport sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining iqtisodiy ahamiyatini yanada chuqurroq anglash, ularning faoliyati samaradorligini oshirish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari transport iqtisodiyoti va xizmatlar bozori nazariyasini kichik biznes subyektlarining institusional roli nuqtai nazaridan boyitadi hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida logistika xizmatlarining transformatsiyasini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xizmat ko'rsatish sohasining muhim va strategik yo'nalishlaridan biri yuk tashish xizmatlari hisoblanadi. Ushbu tarmoq nafaqat ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajaradi, balki iqtisodiy aloqalar uzluksizligini ta'minlovchi, tovarlar va xizmatlar harakatini jadallashtiruvchi hamda hududlararo iqtisodiy integratsiyani mustahkamlovchi muhim infratuzilmaviy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, eksportga yo'naltirilgan va tashqi bozorlarga izchil integratsiyalashib borayotgan iqtisodiyotlar uchun transport infratuzilmasining texnik holati, boshqaruv samaradorligi, yuk tashish xizmatlarining sifat va narx jihatidan raqobatbardoshligi hamda logistika tizimining barqarorligi strategik ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, jahon yuk tashish va logistika (freight & logistics) bozori hajmi 2025-yilda taxminan 6,37 trillion AQSH dollarini tashkil etgan bo'lib, 2031-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 8,49 trillion AQSH dollarigacha yetishi prognoz qilinmoqda. Mazkur o'sish global savdo hajmining kengayishi, elektron tijoratning jadal rivojlanishi hamda ta'minot zanjirlarining transformatsiyasi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga xos bo'lgan ayrim xususiyatlar sababli xizmatlar va transport sohasida norasmiy iqtisodiy faoliyatning muayyan ulushi saqlanib qolmoqda. Xalqaro ekspertlarning baholashlariga ko'ra, xizmatlar sohasida norasmiy iqtisodiyot ulushi o'rtacha 30-35 foizni, transport xizmatlari sohasida 35-40 foizni, avtomobil yuk tashish segmentida esa 40-50 foizgacha yetishi mumkin. Ushbu holat, ayniqsa, kichik biznes subyektlari ustun bo'lgan ichki yuk tashish bozorida naqd pul hisob-kitoblarning nisbatan yuqori ulushi, shartnomaviy munosabatlarning to'liq rasmiylashtirilmaganligi, elektron hujjat aylanishining cheklanganligi hamda ayrim iqtisodiy operatsiyalarning rasmiy hisobga olinmasligi bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida ham 2020-2025-yillar davomida yuk tashish xizmatlari sohasida muayyan tarkibiy va institusional o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, avtomobil transporti orqali amalga oshirilayotgan ichki yuk tashish xizmatlari hajmining barqaror o'sishi, kichik biznes subyektlari va yakka tartibdagi tashuvchilar ulushining ortib borishi mazkur segmentning milliy iqtisodiyotdagi o'rnini yanada mustahkamladi. Shu bilan birga, sohada rasmiylashtirish jarayonlari to'liq yakunlanmagani sababli norasmiy iqtisodiy munosabatlar ma'lum darajada saqlanib qolmoqda. Jumladan, naqd pul aylanmasining ustunligi, shartnomalarni to'liq rasmiylashtirish



amaliyotining yetarli darajada yo'lga qo'yilmagani hamda elektron hujjat aylanishining cheklangan qo'llanilishi yuk tashish xizmatlarining ayrim qismi rasmiy statistika va soliq hisobotlaridan tashqarida qolishiga olib kelmoqda.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda yuk tashish xizmatlari bozorida shakllangan mavjud holat rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xos bo'lgan umumiy tendensiyalar bilan uyg'unlik kasb etadi. Xususan, sohada kichik biznes subyektlarining ustunligi, naqd pul aylanmasining nisbatan yuqori darajasi hamda shartnomaviy munosabatlarning to'liq institusionallashmaganligi xalqaro ekspertlar tomonidan qayd etilgan norasmiy iqtisodiyot ulushi bo'yicha baholashlarni mamlakat sharoitiga qiyosiy tatbiq etish imkonini beradi.

Mazkur holat transport xizmatlari bozorida soliq salohiyatidan to'liq foydalanilmayotganini, rasmiy hisob-kitoblar bilan real iqtisodiy faoliyat o'rtasida ma'lum tafovut mavjudligini anglatadi. Shu bois, yuk tashish xizmatlari sohasida soliq bazasini kengaytirish, moliyaviy shaffoflikni ta'minlash hamda hisob-kitoblarni raqamlashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, elektron hujjat aylanishi, onlayn shartnomalar, raqamli treking va zamonaviy to'lov tizimlarini joriy etish orqali norasmiy aylanmani qisqartirish hamda kichik biznes subyektlarini rasmiy iqtisodiy muomalaga kengroq jalb etish imkoniyatlari oshadi.

Shu bilan birga, institusional islohotlar faqat ma'muriy nazorat choralarini kuchaytirish bilan cheklanib qolmasdan, kichik tashuvchilar uchun soliq yukini maqbullashtirish, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda raqamli infratuzilmadan foydalanish xarajatlarini kamaytirish bilan uyg'un holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Zero, bozor ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatlari va rag'batlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan chora-tadbirlar yuk tashish xizmatlari sohasini barqaror, shaffof va raqobatbardosh tarmoq sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi.

1-jadval. 2020–2025 yillar yuk tashish hajmi (tonnada)

Yil	Jami yuk tashilgan (million tonna)	Izoh
2020	≈ 1 366.7 mln tonna	Barcha transport xizmatlari turlari bilan umumiy hajm.
2021	≈ 1 420.2 mln tonna	
2022	≈ 1 420.9 mln tonna	
2023	≈ 1 455.7 mln tonna	
2024	≈ 1 521.2 mln tonna	

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020-2024-yillarda qayd etilgan 1,3-1,52 mlrd tonna yuk tashish hajmi barcha transport turlari orqali amalga oshirilgan umumiy yuk tashish hajmini ifodalaydi. Mazkur ko'rsatkich avtomobil, temir yo'l, quvur hamda havo transporti orqali bajarilgan tashuvlar yig'indisini o'z ichiga oladi.

2024-yil ma'lumotlari asosida yuk tashish hajmini transport turlari kesimida quyidagicha taqsimlash mumkin. Jumladan, avtomobil transporti orqali taxminan 1,3855 mlrd tonna yuk tashilgan bo'lib, bu umumiy yuk tashish hajmining asosiy qismini tashkil etadi. Temir yo'l transporti hissasiga qariyb 73,9 mln tonna yuk to'g'ri kelgan. Quvur transporti orqali esa taxminan 61,8 mln tonna gaz tashilgan.

Havo transporti orqali amalga oshirilgan yuk tashish hajmi joriy yilda o'sish tendensiyasini namoyon etgan bo'lsa-da, mamlakat yuk tashish bozorida uning umumiy ulushi nisbatan kichikligicha qolmoqda.



1-rasm. 2020-2024 yillarda O'zbekistonda jami yuk tashish hajmi

Qo'shimcha tendensiyalar sifatida ta'kidlash joizki, yo'l (avtomobil) transporti yuk tashish bozorida yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Xususan, 2024-yilda avtomobil transportining umumiy yuk tashish hajmidagi ulushi taxminan 92 foizni tashkil etdi. Mazkur holat ichki yuk tashish jarayonlarida avtomobil transportining yuqori moslashuvchanligi, hududlararo aloqalarni ta'minlashdagi qulayligi va logistika zanjirlaridagi muhim o'rni bilan izohlanadi.

Shuningdek, xalqaro tranzit yuklari hajmida ham barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Jumladan, 2020-yilda 500 ming tonnani tashkil etgan xalqaro tranzit yuk tashish hajmi 2025-yilga kelib 1 mln tonnagacha yetdi. Bu, o'z navbatida, O'rta koridor doirasida amalga oshirilayotgan xalqaro tranzit yuk tashish hajmining 2020-2025-yillar davomida qariyb ikki barobarga oshganidan dalolat beradi.

Keltirilgan statistik ma'lumotlar asosida mamlakatda yuk tashish xizmatlari bo'yicha transport sohasining milliy iqtisodiyotdagi o'rni va salohiyati muhim ahamiyat kasb etishini qayd etish mumkin. Shu bilan birga, mazkur tarmoqda kichik biznes subyektlarining bozor ulushi va ularning iqtisodiy faolligi ham alohida e'tiborga loyiq bo'lib, ushbu omilni tahlil jarayonida e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

2-jadval. O'zbekistonda yuk tashish sohasida kichik biznes (KB) ulushi (2020-2025 y.)

Yil	Kichik biznes ulushi, % (yuk tashish hajmida)	Izoh
2020	≈ 45.2 %	COVID-19 ta'siri mavjud, avtotransportda yuk tashishda KB ustun
2021	≈ 47.6 %	Ichki bozor faollashuvi, yakka tartibdagi tashuvchilar sonining o'sishi
2022	≈ 49.8 %	Raqamli iqtisodiyotning ta'siri va lisenziyalash tartibining soddalashuvi
2023	≈ 51.0 %	Logistika xizmatlarida KB roli oshganligini kuzatish mumkin
2024	≈ 51.5 %	Avtomobil transporti orqali amalga oshirilayotgan ichki yuk tashish xizmatlarining mutlaq ko'p qismi (90 foizdan ortig'i) kichik biznes subyektlari va yakka tartibdagi tashuvchilar hissasiga to'g'ri keladi
2025	≈ 51.8 %	Barqaror o'sish, KBning ichki yuk tashishda yetakchi ulushga ega bo'lishi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Transport vazirligi hamda Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mamlakat transport sohasidagi yuk tashish xizmatlarini amalga oshiruvchi kichik biznes subyektlari asosan avtomobil yuk tashish segmentida jamlangan yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikro-logistika kompaniyalar bo'lib ularni iqtisodiy samaradorligi va xavfsizligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.



2-rasm. Yuk tashishda kichik biznes ulushi (2021-2025)



So'nggi yillarda mamlakatimizda yuk tashish sohasida kichik biznes subyektlari faoliyatining samaradorligi va xavfsizligini oshirishga qaratilgan qator muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mazkur hujjatlar orasida quyidagi Prezident farmonlari va hukumat qarorlarini alohida ta'kidlash mumkin.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli farmonda quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan:

- transport-logistika tizimini izchil rivojlantirish;
- xususiy sektor va kichik biznes ulushini oshirish;
- yuk tashish xizmatlari bozorida raqobat muhitini kuchaytirish.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-iyundagi "Avtomobil transportida yuk tashish faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" 311-sonli qaroriga muvofiq:

- yakka tartibdagi tadbirkorlar va kichik korxonalar uchun litsenziyalash tartibi soddalashtirildi;
- ichki yuk tashish bozoriga kirishdagi ma'muriy to'siqlar qisqartirildi;
- avtomobil yuk tashish sohasida kichik biznes subyektlari faoliyatini kengaytirish uchun qulay sharoitlar yaratildi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-martdagi PQ-104-sonli qarorida "Transport va logistika sohasida raqamlashtirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror doirasida:

- elektron yuk hujjatlari (e-CMR)ni joriy etish;
- raqamli dispetcherlik va platforma xizmatlarini rivojlantirish;
- kichik tashuvchilarning bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish

kabi yo'nalishlar nazarda tutilgan.

4. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2023-2024-yillarga oid me'yoriy hujjatlari va tushuntirish xatlarda hujjatlarda quyidagi asosiy yo'nalishlar belgilangan:

- yuk tashish xizmatlari ko'rsatuvchi kichik biznes subyektlarini soliq hisobida to'liq qamrab olish;
- raqamli hisob-kitob va onlayn nazorat mexanizmlarini joriy etish;
- xizmatlar sohasida soliq intizomini mustahkamlash.

5. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2020-2025-yillarga mo'ljallangan dasturlarida:

- avtomobil yuk tashish infratuzilmasini rivojlantirish;
- xususiy va kichik tashuvchilar uchun qulay biznes muhitini shakllantirish;
- xalqaro tranzit yuk tashish jarayonlarida milliy tashuvchilar ulushini oshirish kabi maqsadlar belgilangan.

Yuqorida keltirilgan farmon va qarorlar yuk tashish sohasida kichik biznes subyektlarining institusional rolini mustahkamlash, bozorga kirishdagi to'siqlarni kamaytirish hamda raqamlashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan izchil va tizimli davlat siyosatini aks ettiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, yuk tashish xizmatlari bozorida kichik biznes subyektlari iqtisodiy o'sishning faol drayveriga aylanib bormoqda. Mazkur tendensiya raqamlashtirish jarayonlari bilan uyg'un holda davom etsa, transport sohasi milliy iqtisodiyotda yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi strategik tarmoq sifatida shakllanishi mumkin.

2020-2025-yillar davomida O'zbekistonda yuk tashish xizmatlari bozori barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Xususan, jami yuk tashish hajmining 1,36 mlrd tonnadan 1,52 mlrd tonnagacha oshgani transport sohasining milliy iqtisodiyotdagi strategik ahamiyati tobora ortib borayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, avtomobil transportining 2024-yilda umumiy yuk tashish hajmidagi ulushi taxminan 92 foizni tashkil etgani mazkur segmentning bozor tuzilmasida dominant o'ringa ega ekanini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari yuk tashish xizmatlari bozorida kichik biznes subyektlarining institusional va iqtisodiy roli izchil mustahkamlanib borayotganini tasdiqlaydi. Jumladan, kichik biznes ulushining 2020-yildagi 45,2 foizdan 2025-yilda 51,8 foizgacha oshishi ushbu segmentning bozor tuzilmasida yetakchi mavqega chiqayotganini anglatadi. Bu holat ichki bozor barqarorligini ta'minlash, ish bilan bandlikni oshirish va tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, xizmatlar sohasiga xos bo'lgan norasmiy iqtisodiy munosabatlar, naqd pul hisob-kitoblarning yuqori ulushi hamda elektron hujjat aylanishining cheklanganligi transport xizmatlari bozorida soliq salohiyatining to'liq safarbar etilmayotganini ko'rsatmoqda. Demak, yuk tashish xizmatlarini raqamlashtirish darajasini oshirish, elektron platformalar va e-CMR tizimlarini keng joriy etish kichik biznes subyektlarining rasmiy iqtisodiyotga integratsiyasini jadallashtiruvchi muhim institusional omil hisoblanadi.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda qabul qilingan farmon va qarorlar transport-logistika sohasini liberallashtirish, bozorga kirish to'siqlarini kamaytirish hamda raqobat muhitini kuchaytirishga qaratilgan tizimli davlat siyosatini aks ettiradi. Ushbu islohotlar kichik tashuvchilarning

institusional maqomini mustahkamlash, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish va bozor mexanizmlarini takomillashtirish uchun zarur huquqiy asos yaratmoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari yuk tashish xizmatlari sohasida kichik biznes subyektlarining iqtisodiy ahamiyati izchil ortib borayotganini, ayniqsa avtomobil transporti segmentida ularning ustuvor oʻrin tutayotganini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Kelgusida mazkur sohada raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, moliyaviy shaffoflikni kuchaytirish va ragʻbatlantiruvchi institusional mexanizmlarni takomillashtirish orqali transport xizmatlari bozorining barqaror oʻsishini taʼminlash hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini yanada mustahkamlash mumkin.

Keltirilgan tahliliy xulosalar va statistik maʼlumotlarga tayangan holda, Oʻzbekistonda transport sohasida, xususan yuk tashish xizmatlarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirish maqsadida, avtomobil yuk tashish segmentida ularning yuqori ulushini inobatga olgan holda quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- kichik yuk tashuvchilar uchun raqamli logistika platformalarini rivojlantirish;
- davlat-xususiy sheriklik asosida milliy raqamli logistika platformalarini joriy etish;
- kichik tashuvchilarni elektron dispetcherlik, e-CMR va GPS-nazorat tizimlariga bosqichma-bosqich ulash;
- yuk beruvchi va tashuvchi oʻrtasida toʻgʻridan-toʻgʻri shartnoma tuzishni ragʻbatlantirish;
- kichik yuk tashuvchilar uchun lizing va avtokreditlash dasturlarini kengaytirish;
- transport vositalarini yangilash uchun imtiyozli kredit liniyalarini joriy etish;
- kichik tashuvchilar uchun sugʻurta mexanizmlarini (yuk sugʻurtasi, faoliyat xavflari) rivojlantirish orqali iqtisodiy xatarlarni kamaytirish;
- milliy yuk tashish xizmatlarini amalga oshirayotgan kichik tashuvchilarni xalqaro litsenziyalash jarayonlarida qoʻllab-quvvatlash;
- kichik yuk tashuvchi korxonalar uchun soddalashtirilgan soliq hisobotlarini joriy etish;
- raqamli platformalar orqali avtomatik soliq hisoblash tizimlarini tatbiq etish;
- norasmiy yuk tashish faoliyatini legallashtirishga qaratilgan ragʻbatlantiruvchi institusional mexanizmlarni ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Mordor Intelligence. Taxi Market: Growth, Trends, COVID-19 Impact, and Forecasts (2023–2028). Hyderabad, 2023.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasi. Raqamli platformalar faoliyatini soliqqa tortish boʻyicha 2023-2024 yillar natijalari toʻgʻrisida hisobot. Toshkent, 2024.
3. Mordor Intelligence. Freight and Logistics Market Study. 2025.
4. Xalqaro valyuta jamgʻarmasi (IMF), OECD va World Bank. Xizmatlar sohasida yashirin iqtisodiyotni baholash boʻyicha tahliliy hisobotlar.
5. Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi. Avtomobil transportida 1,4 mlrd tonna yuk tashilgan. Elektron manba: <https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/60648-avtomobil-transportida-1-4-mlrd-tonna-yuk-tashilgan>
6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida” PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
7. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-iyundagi “Avtotransport vositalarini boshqarishda va yoʻnalishsiz taksi faoliyatini amalga oshirishda qoʻshimcha qulayliklar yaratish toʻgʻrisida” PQ-311-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-6100006>
8. Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi. Transport va aloqa sohasi boʻyicha yillik statistik maʼlumotlar (2020-2024 yillar). Toshkent.
9. Xalqaro valyuta jamgʻarmasi (IMF). Digital Platforms and Tax Base Expansion: Analytical Reports. Washington, D.C.
10. World Bank. Logistics Performance Index (LPI): International Reports. Washington, D.C.
11. Statista Research Department. Global Taxi Market and Freight & Logistics Market Reports (2023-2028). Hamburg.
12. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). SMEs in Transport and Logistics: Economic Role, Informality and Policy Implications. Paris: OECD Publishing.
13. Karimov N.M., Raximov A.A. Oʻzbekistonda transport xizmatlari bozorining rivojlanishi va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy roli // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 2022-yil, № 4.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100